

FRANSUZ TILINING LEKSIK-FRAZEOLOGIK MAYDONI: STRUKTUR VA SEMANTIK XUSUSIYATLAR

Safarova Umida Aliaskarovna

Toshkent davlat Stomatologiya instituti Lotin tili va xorijiy tillar kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqola fransuz tilining leksik-frazeologik maydoni va uning strukturaviy, semantik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqola, fransuz tilidagi frazeologik birliklarning tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlilini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot, frazeologik birliklarning leksik-semantik, struktura-sintaktik va funksional jihatlarini o‘rganish orqali fransuz tilida ishlatiladigan frazeotoponimlar, somatizm va boshqa frazeologik tuzilmalarni tasvirlab beradi. Shuningdek, maqolada frazeologik birliklarning semantik o‘zgarishlari, ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi roli va lingvistik markaziy ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Ushbu ish, tilshunoslar va madaniyatshunoslar uchun frazeologiya, toponimika va lingvistik-semantik tadqiqotlar doirasida yangi yondashuvlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: leksik-frazeologik maydon, frazeologiya, semantik xususiyatlar, toponimika, somatizm, frazeologik birliklar, frazeotoponimlar, lingvistik tadqiqotlar, madaniyatshunoslik, tilshunoslik.

ЛЕКСИКО-ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЕ ПОЛЕ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА: СТРУКТУРНЫЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

— **Аннотация.** — Данная статья посвящена изучению лексико-фраzeологического поля французского языка, а также его структурных и семантических особенностей. В статье рассматривается анализ frazeологических единиц французского языка с точки зрения лингвистики и культурологии. Исследование описывает frazeотопонимы, соматизмы и другие frazeологические структуры, используемые во французском языке, через изучение лексико-семантических, структурно-синтаксических и функциональных аспектов frazeологических единиц. Кроме того, в статье рассматриваются семантические изменения frazeологических единиц, их



роль в социокультурном контексте и лингвистическое значение. Данная работа предлагает новые подходы к фразеологии, топонимике и лингвистико-семантическим исследованиям для лингвистов и культурологов.

Ключевые слова: лексико-фразеологическое поле, фразеология, семантические особенности, топонимика, соматизмы, фразеологические единицы, фразотопонимы, лингвистические исследования, культурология, лингвистика.

THE LEXICAL-PHRASEOLOGICAL FIELD OF THE FRENCH LANGUAGE: STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES

Abstract. This article is dedicated to the study of the lexical and phraseological field of the French language and its structural and semantic features. It includes an analysis of French phraseological units from both linguistic and cultural perspectives. The research describes phraseotoponyms, somatisms, and other phraseological structures used in French through the examination of the lexical-semantic, structural-syntactic, and functional aspects of phraseological units. Additionally, the article explores semantic changes in phraseological units, their role in the socio-cultural context, and their linguistic significance. This work introduces new approaches to phraseology, toponymy, and linguistic-semantic research for linguists and cultural scholars.

Key words: lexical-phraseological field, phraseology, semantic features, toponymy, somatisms, phraseological units, phraseotoponyms, linguistic research, cultural studies, linguistics.

Kirish. Fransuz tili, o‘zining boy leksik va frazeologik tizimi bilan tilshunoslar va madaniyatshunoslar uchun doimiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Har bir til o‘zining unikal leksik va frazeologik tizimi orqali milliy dunyoqarash, tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstni aks ettiradi. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki bir xalqning ongida shakllangan tasavvurlarni, qadriyatlarni va umumbashariy g‘oyalarni ifodalashning yirik vositasidir. Leksik va frazeologik birliklar, ayniqsa, bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular insonning tasavvurlari, his-tuyg‘ulari, fikrlari va madaniy tajribalari bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks ma’no tuzilmalari sifatida tilning murakkab, ammo

birlashtiruvchi qismlarini tashkil qiladi.

Fransuz tili frazeologiyasi, o‘z navbatida, juda boy va murakkab tizimga ega. Frazeologik birliklar, ko‘plab til birikmalaridan farqli o‘laroq, o‘zining semantik ifodasida mustahkamlik va mustahkam o‘zgarishlarni namoyon etadi. Bu birliklar so‘z birikmalaridan farqli ravishda, faqat bitta ma‘noga ega bo‘lmay, ko‘pincha metafora, metonimiya va boshqa stilistik vositalar orqali obrazli va chuqur ma‘nolarni ifodalaydi. Bular, shuningdek, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani aks ettirgan holda, o‘z-o‘zidan chuqur madaniy va tarixiy izlanishlarni talab qiladi.

Fransuz tilining leksik-frazeologik maydoni, uning tarkibidagi frazeologik birliklar va ularning semantik, struktural, funksional jihatlari xalqning dunyoqarashi, milliy mentaliteti, ijtimoiy va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, leksik-frazeologik maydon tilshunoslikda muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, uning tahlili orqali til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqliklar, milliy xususiyatlar va til orqali ifodalangan insoniy fazilatlar haqida yaxshiroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Ushbu maqolada, fransuz tilining leksik-frazeologik maydoni o‘rganiladi, uning tarkibidagi frazeologik birliklar, ularning struktura va semantik jihatlari, shuningdek, madaniy va tarixiy kontekstdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o‘zaro aloqalari, tilning kommunikativ va madaniy funksiyalari ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, toponimlar bilan bog‘liq frazeologik birliklar, ularning semantik va struktural farqlari, shuningdek, ularning boshqa tillar bilan solishtirilgan holda qanday o‘zgarishlar yuzaga kelishi tahlil qilinadi.

Maqolada fransuz tilining frazeologik tizimining strukturaviy jihatlari, frazeologik birliklarning semantik ko‘lamlari, ular orasidagi o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarning madaniy-tilshunoslik ahamiyati haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Shu orqali til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni ochib berish, shuningdek, frazeologik birliklar orqali xalqning mentalitetini, tarixiy xotirasi va madaniy an‘analarini tahlil qilishning ahamiyati ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Fransuz tilining leksik-frazeologik maydonini o‘rganishda ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar, ilmiy nazariyalar va amaliy manbalar asosiy tayanch bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqotning nazariy asoslari mashhur tilshunoslar – A.B. Kunin, A.G. Nazaryan, V.G. Gak, Z.N. Levit, G.G. Sokolova [1,

5, 6, 10, 12] va boshqalar [2, 3, 4, 7, 8, 9, 11, 13, 14, 15] tomonidan olib borilgan ishlarga tayanadi.

Frazeologiyaning umumiy nazariy asoslari A.B. Kuninning “*Курс фразеологии современного английского языка*” (1996) nomli asarida batafsil bayon etilgan. Ushbu ish frazeologik birliklarning tasnifi, strukturasi va semantik tahlili nuqtai nazaridan muhim manba bo‘lib xizmat qildi. A.G. Nazaryan (1972, 1987) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa bevosita fransuz tiliga oid bo‘lib, frazeologik birliklarning semantik mustaqilligi, mazmunli qatlamlar va madaniy konnotatsiyalar masalalariga bag‘ishlangan.

Fransuz frazeologiyasining strukturaviy-semantik xususiyatlari bo‘yicha V.G. Gak (1959)ning ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u frazeologik birliklarning guruhlanish prinsiplari va ularning tizimli tahliliga asoslangan yondashuvni ishlab chiqqan. Shuningdek, Gak va Ya.I. Retsker (1963) tomonidan yaratilgan fransuz-rus frazeologik lug‘at til o‘zaro taqqoslash asosidagi tahlilni chuqurlashtirish imkonini berdi.

Frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning strukturadagi roli Z.N. Levit (1979) va G.G. Sokolova (1987) tomonidan o‘rganilgan. Ayniqsa, frazeotuzilish, ya’ni frazeologik birliklarning vujudga kelish jarayonlari va ularning morfosintaktik tuzilmalari tadqiq etilgan.

Frazeologik birliklarning ekspressiv va konnotativ jihatlari bo‘yicha S.G. Makarova (1999), A.A. Martynova (1990), E.P. Molostova (2000)ning ishlari asos qilib olindi. Ushbu tadqiqotchilar frazeologik birliklarning emotsional yuki, obrazlilik darajasi, shaxsiy va sotsiokulturologik ma’nolarini tahlil qilgan. Ularning ishlarida ayniqsa fransuz va rus tillari frazeologiyasining o‘zaro taqqoslash tahlili yoritilgan.

N.N. Kirillova (1975) somatizm (tana a’zolari) bilan bog‘liq frazeologik birliklar ustida ilmiy izlanish olib borib, ularning tarkibiy va semantik tahlilini chuqur asoslagan. Bu tadqiqot frazeologik birliklarning tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro aloqasi va ularning ma’nodagi mustaqilligi darajasini aniqlashga imkon berdi.

Fransuz tili so‘zlashuv qatlamidagi frazeologik birliklar bo‘yicha E.F. Grineva va T.N. Gromova (1986), N.S. Smirnova (2000)ning lug‘atlari, shuningdek, P. Roland (1977) tomonidan yaratilgan familiyer frazeologik lug‘at keng ko‘lamli misollarni taqdim etish imkonini berdi. Ular zamonaviy matbuot, badiiy adabiyot va

ogʻzaki nutqda uchraydigan frazeologizmlarni oʻrganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Frazeologik birliklarning semantik oʻzgaruvchanligi va ularning tarixiy-madaniy asoslari A. Rey (1973) hamda A. Sauvageot (1964) tomonidan oʻrganilgan. Ularning ishlari frazeologik birliklarning til lugʻatlaridagi ifodalanish shakllari, tarixiy ildizlari va obrazli tahlillarini oʻz ichiga oladi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda leksik-semantik, struktur-sintaktik, ekspressiv-pragmatik va komparativ tahlil usullari qoʻllanildi. Asosiy tahlil obyekt sifatida zamonaviy fransuz tilidagi adabiy asarlar, frazeologik lugʻatlar, ilmiy maqolalar hamda matbuot materiallari tanlab olindi. Frazeologik birliklarning kontekstdagi ishlatilishi, ularning emotsional yuki va madaniy mazmuni kontekstual tahlil orqali aniqlashtirildi. Komparativ yondashuv orqali esa fransuz va rus tillari frazeologizmlarining umumiy va oʻziga xos jihatlari ochib berildi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili fransuz frazeologiyasining nazariy asoslarini belgilash, tadqiqot obyektining tahliliy mezonlarini ishlab chiqish va frazeologik birliklarning kommunikativ-funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Natijalar. Fransuz tilining leksik-frazeologik maydonini oʻrganish jarayonida olingan natijalar, asosan, frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalar va natijalarga erishildi:

Fransuz tilidagi frazeologik birliklar oʻzaro bogʻlangan va oʻziga xos tizimni tashkil etadi, ularning koʻpchiligi idiomatik birliklar sifatida faoliyat koʻrsatadi. Bu birliklar koʻpincha bir yoki bir necha soʻzlardan iborat boʻlib, ularning maʼnosi faqat toʻliq ifodalanishi bilan tushuniladi. Frazeologik birliklar oʻzaro bogʻlangan leksik elementlardan tashkil topgan boʻlib, har bir soʻzning alohida maʼnosi baʼzan frazeologik maʼnoni toʻliq aks ettirish uchun yetarli boʻlmaydi.

Tadqiqotda fransuz tilidagi frazeologik birliklarning maʼnosi tarixiy voqealar, madaniy anʼanalar yoki ijtimoiy kontekstga qarab oʻzgarishi aniqlangan. Baʼzi frazeologizmlarning semantik yuklari boshqa tillarda yoki madaniyatlarda farq qilishi mumkin, bu esa til va madaniyat oʻrtasidagi farqlarni koʻrsatadi. Bu holat, tilshunoslikda “semantik oʻzgarish” hodisasi sifatida koʻrib chiqilgan va tilning tarixiy va madaniy oʻzgarishlar bilan bogʻliqligi tasdiqlangan.



Fransuz tilida toponimik frazeologizmlar alohida e'tiborga sazovor bo'ldi. Geografik nomlardan foydalanilgan frazeologik birliklar ko'pligi va ularning semantik funksiyalari o'rganildi. Toponimik frazeologizmlar milliy va madaniy realiyalarni ifodalashda katta rol o'ynaydi. Fransuz tilida toponimlar ko'pincha milliy tarixiy kontekstga bog'liq bo'lib, ular o'zining metaforik, obrazli va semantik imkoniyatlari orqali madaniyatning aks etishini ta'minlaydi.

Fransuz tilidagi frazeologik birliklar o'ziga xos madaniy va lingvistik farqlarga ega bo'lib, boshqa tillardagi frazeologik birliklarga to'liq mos kelmasligi mumkin. Biroq, ba'zi frazeologik birliklar umumiy semantik asosga ega va translingvistik qiyoslanishi mumkin.

Fransuz tilidagi frazeologik birliklar ko'pincha emotsional va obrazli xarakterga ega bo'lib, ular odamlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini va munosabatlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ba'zi frazeologizmlarning ekspressiv ta'siri ularning semantik tarkibi va obrazli komponentlariga bog'liq.

Fransuz tilidagi frazeologik birliklarning sintaktik shakllari o'zgarishsiz va aniq tuzilishga ega bo'lib, bu ularning barqaror va mustahkam til elementlari sifatida ishlatilishini ta'minlaydi. Bu frazeologik birliklarning ishlatilishidagi mustahkamlik, qayta tiklanish va semantik o'zgarishlar asosida tahlil qilindi.

Frazeologik birliklar nafaqat tilni boyitadi, balki kommunikatsiya jarayonida qisqa va aniq ma'lumotlarni etkazishda muhim rol o'ynaydi. Ular shuningdek, tilning ekspressiv va obrazli jihatlarini, shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni va ijtimoiy madaniyatni aks ettiradi.

Umuman olganda, tadqiqot fransuz tilining leksik-frazeologik maydonining strukturaviy va semantik xususiyatlarini, uning madaniy, ijtimoiy va kommunikativ rollarini o'rganish orqali fransuz tilining lingvistik va madaniy tuzilmasini yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratdi.

Muhokama. Tadqiqot davomida fransuz tilining leksik-frazeologik maydoni tilshunoslikda muhim o'rin tutadiganini ko'rsatdi. Frazeologizm nafaqat lingvistik element sifatida, balki madaniy va tarixiy jarayonlarning aks ettiruvchisi sifatida ham chuqur tahlil qilindi. Bu frazeologik birliklar, o'zining semantik va struktural xususiyatlari orqali milliy va madaniy identifikatsiyaning muhim qismi bo'lib xizmat qiladi.

Fransuz tilidagi frazeologizmning ko'plab shakllari o'zining o'ziga xos semantik va obrazli tarkibi bilan xalqning dunyoqarashini va tarixiy merosini aks



ettiradi. Shuningdek, frazeologizmlar faqat lingvistik emas, balki psixologik va ijtimoiy ta'sirga ega bo'lib, tilning kommunikativ rolini oshiradi. Masalan, ba'zi frazeologik birliklar, hayotiy tajriba va xalqning ijtimoiy ruhiyatini aks ettiruvchi vositalar sifatida ishlaydi.

Frazeologizmning universal va idiomatik (millatga xos) xususiyatlari o'rtasidagi farqlar ham alohida ahamiyatga ega. Ba'zi frazeologik birliklar boshqa tillarda mavjud bo'lishi mumkin, ammo ularning ma'nosi va ta'siri faqat o'z madaniy va tarixiy kontekstida to'liq anglanadi. Shunday qilib, frazeologizmlar o'zaro madaniyatlararo hamohanglikni yoki o'ziga xoslikni ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, frazeologizmning semantik o'zgarishlarining dinamikasi tilning rivojlanishi bilan bog'liq. Vaqt o'tishi bilan frazeologizmlar o'z semantik ma'nolarini o'zgartirishi yoki yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga moslashishi mumkin. Bu frazeologik birliklarning tilshunoslikda o'rganilishini yanada muhim qiladi, chunki ular nafaqat tilning strukturaviy jihatlarini, balki uning rivojlanishini ham aks ettiradi.

Frazeologizmning ijtimoiy, madaniy va psixologik rolini to'liq tushunish uchun ularning lingvistik va madaniy kontekstini birgalikda tahlil qilish zarur. Bu frazeologizmni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya nuqtai nazaridan ham o'rganishni taqozo etadi.

Xulosa. Tadqiqotda fransuz tilining leksik-frazeologik maydoni va uning struktural-semantik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda frazeologizmlarning lingvistik tizimdagi o'rnini, ularning semantik bog'liqligi, shuningdek, frazeologik birliklarning madaniy, tarixiy va psixologik ahamiyati kiritildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, fransuz tilidagi frazeologik birliklar faqat tilning strukturasi bilan ifodalash bilan cheklanmaydi, balki ular xalqning milliy va madaniy qarashlarini, tarixiy voqealarini va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi.

Tadqiqot davomida fransuz frazeologizmida ko'plab obrazli elementlarning mavjudligi, ularning tilni ifodalovchi va o'zaro kommunikatsiya vositasi sifatida ishlashi ta'kidlandi. Frazeologizmning semantik o'zgarishlari va uning turli kontekstlarda ishlatilishi til va madaniyat o'rtasidagi dinamik munosabatlarni ko'rsatadi. Bu frazeologik birliklarning ko'plab semantik va sintaktik shakllari orqali xalqning dunyoqarashi va ijtimoiy-hayotiy tajribasi aks etadi.

Shuningdek, fransuz tilidagi frazeologizmlar va ularning semantik ma'nolaridagi o'zgarishlar o'zgaruvchan ijtimoiy, madaniy va siyosiy kontekstlarda



o'zgarish shakllarda saqlanishi yoki yangi ma'no qatlamlarini qabul qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu esa tilning jonli va evolyutsion xususiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqotda shuningdek, fransuz tilining boshqa tillar bilan taqqoslanganda ba'zi frazeologizmlarning universal va muayyan madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettirishi muhimligi ko'rsatilgan.

Kelajakdagi tadqiqotlar fransuz frazeologiyasining boshqa tillar bilan o'zaro ta'sirini, xususan, o'zaro frazeologik ekvivalentlar mavjudligi yoki bu ekvivalentlarning mavjud emasligi sababli yuzaga keladigan semantik va struktural o'zgarishlarni yanada chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, frazeologizm va tilning madaniy, psixologik, ijtimoiy va tarixiy kontekstdagi o'zgarishlari bo'yicha tadqiqotlar yanada kengaytirilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, tilshunoslikda frazeologizmi nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya nuqtai nazaridan ham o'rganishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, fransuz tilining frazeologik tizimini boshqa tillar bilan solishtirish, lingvistik va madaniy farqlarni yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Bu kabi tadqiqotlar ikki til o'rtasidagi farqlarni va o'xshashliklarni aniqlashda, shuningdek, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Yakuniy xulosada, fransuz tilining leksik-frazeologik maydoni tilshunoslikdagi asosiy elementlardan biri sifatida uning til tuzilmasi va madaniyatni ifodalovchi kuchini yanada kuchaytiradi. Tadqiqotning natijalari tilni va uning madaniy o'zgarishlarini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi, bu esa o'z navbatida frazeologizm va tilshunoslik sohasidagi yangi ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гак В.Г. О структурно-семантических группах во французской фразеологии Текст. / В.Г. Гак. ИЯШ, 1959. - № 5. - С. 21-26.
2. Гак В.Г., Рецкер Я.И. О французской фразеологии и французско-русском фразеологическом словаре // Французско-русский фразеологический словарь Текст. / В.Г. Гак, Я.И. Рецкер. М., 1963. - 539 с.
3. Гринева Е.Ф., Громова, Т.Н. Словарь разговорной лексики французского языка (на материале современной художественной литературы и прессы): около 9 тыс. слов Текст. / Е.Ф. Гринева, Т.Н. Громова. 2-е изд., стер. - М.: Русский язык, 1986. - 640 с.

4. Кириллова, Н.Н. Компонент фразеологической единицы и слово (на материале соматических фразеологизмов современного французского языка) Текст.: дис... канд. филол. наук / Н.Н. Кириллова. Д., 1975. - 163 с.

5. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-ов и фак. иностр. яз / А.В. Кунин. 2-е изд., перераб. - М.: Высш. шк., Дубна: изд. центр «Феникс», 1996. - 381 с.

6. Левит З.Н. Лексикология французского языка Текст.: для ин-тов и фак. иностр. яз. [пед. ин-тов по спец. 2103 «Иностр. яз.»] / З.Н. Левит. М.: Высшая школа, 1979. - 160 с.

7. Макарова С.Г. Функционально-стилистический компонент коннотации ФЕ французского и русского языков Текст.: автореф. дис... канд. филол. наук / С.Г. Макарова. Казань, 1999. - 24 с.

8. Мартынова А.А. Экспрессивные ФЕ, характеризующие человека, в современном французском языке (на материале субстантивных ФЕ) Текст. / А.А. Мартынова. -М., 1990. 152 с.

9. Молостова Е.П. Экспрессивный компонент семантики фразеологизмов -антропоцентризм русского и французского языков Текст.: дис... канд. филол. наук / Е.П. Молостова. Казань, 2000. - 209 с.

10. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка / А.Г. Назарян. 2-е изд., перераб. и допол. - М.: Высшая школа, 1987. - 288 с.

11. Смирнова Н.С. Занимательный французско-русский фразеологический словарь Текст. / Н.С. Смирнова. М.: ИД «Муравей», 2000. - 384 с.

12. Соколова Г.Г. Фразообразование во французском языке Текст.: учеб. пособие для ин-тов и фак. иностран. яз. / Г.Г. Соколова. М.: Высш. шк., 1987. - 144 с.

13. Rey A. La phraseologie et son image dans les dictionnaires de l'age classique Текст. / A. Rey // Travaux de linguistique et de literature. Strasbourg, 1973. -XI. 1.-P. 73-86.

14. Roland P. SKIIDIZ / Lexique du francais familier a l'usage des etrangers qui veulent comprendre «ce qu'ils disent» Texte. / P. Roland. Paris: Hachette, 1977. -87 p.

15. Sauvageot A. L'elaboration du lexique et les noms des parties du corps Texte. / A. Sauvageot. Vie et langage, 1964. - № 148 - P. 399-412.